



## ABU NASR FAROBIY ASARLARIDA INSON MASALASI TALQINI

Safarova Tumaris Rustamkulovna  
Toshkent moliya institute

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Forobiyning asarlari, ayniqsa, uning fanlarga oid tasnifi ulkan rol o‘ynaganligi, uzoq vaqt davomida katta ahamiyatga ega bo‘lgan va yuksak mavqesini saqlab kelayotganligi bayon etilgan. Ushbu sohada Forobiy nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham katta shuhrat qozonib, o‘zining bir qator davom ettiruvchilariga ega bo‘lganligi va ilmlar tasnifi masalasida Forobiy asarlarining ahamiyati yoritib berilgan..

**Kalit so‘zlar:** Propedevtika, Metafizika, Murakkab aksidensiya, “ “Ihso al-ulum” (“Ilmlar tasnifi va ta’rifi haqida kitob”), “Ihvon as-safo”, mantiq, poetika, ilmlar tasnifi, “pedagogik ilmlar”.

Sharqda ilmlar rivojlanishining avj olishi IX asrdan boshlanadi. Bunga katta hissa qo‘shganlar qatorida birinchi navbatda Markaziy Osiyoda tug‘ilib voyaga yetgan olimlarni qayd qilish darkor. Ayni paytda Markaziy Osiyodan chiqqan ko‘pgina allomalar Xalifalikning poytaxtiga ketganiga qaramay Markaziy Osiyo ancha vaqtgacha Sharqda sivilizatsiya o‘chog‘i bo‘lib qoldi.

Bu davr haqida N.I.Konrad quyidagicha fikr yuritadi: “Bizga o‘sha asrlarda u yerda ilm-fan, falsafa, ta’lim o‘z davri uchun juda yuqori darajada taraqqiy etgani ma’lum Qadim zamondayoq O‘rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining yo‘llari kesishadigan joyi va o‘zi ham ana shunday sivilizatsiya markazlaridan biri edi”<sup>14</sup>.

Arab tilida ijod etgan olimlar o‘rganishda va tadqiq qilishda Qadimgi Sharq va Yunon, jumladan ellinizm mutafakkirlarining asarlariga asoslangan edilar. Sharqda o‘sha davrda ilm-fan asoslandi. Jahon ilm-fani va tafakkuri yuqori darajali yutuqlar bilan boyitildi. Shunday yutuqlar falasafa, mantiq riyoziyot va tibbiyot sohalarida juda sezilarli bo‘di. Ba’zi

<sup>14</sup> Баходиров Р.М. Илмлар фазилати. -Т.: “Қатортол- Камолот”, 1997. –Б.3.



bir ilmlar, alalxusus, riyoziyot uchun IX-X asrlar, ular rivojlanishining klassik davri hisoblanadi<sup>15</sup>.

Arab xalifaligida tarjimonlik faoliyatining kengayishi va rivojlanishi Yunon mutafakkirlari ta'limotining, ayniqsa, Aristotel asarlarining tarqalishiga va ularning ilmlar tasnifi haqidagi qarashlari bilan Sharqda o'rta asrlik olimlarning tanishishiga keng imkoniyat yaratdi.

Forobiy asosan nazariy ilmlar riyoziyot, mantiq, nazariy tibb, musiqa nazariyasi bilan qiziqqan va ayni paytda tabiatshunoslik, filologiya, she'riyat va boshqa ilmlarni ham mukammal egallagan.

Forobiy fikricha, nazariy ilmlar fanning barcha turlarini o'z ichiga oladi va ularning manbai real mavjud borliqdir. Bu ilmlar, amaliy ilmlardan farq qilib, o'zining qonun va qoidalariga ega. Nazariy ilm doirasida falsafa asosiy o'rinni egallaydi. Chunki u borliqning mohiyati, butun mavjud narsalarning mazmuni haqida to'liq bilim beradigan ilmdir. Ayni paytda Forobiy falasafaning boshqa muayyan ilmlarga nisbati xuddi umumiy xususiyga aksi nisbatidek deb, ta'kidlaydi.

Qomusiy bilim egasi Forobiy o'zining ilmlar tasnifiga bo'lgan munosabatini "Evkilidning birinchi va beshinchi risolalarining kirish qismidagi noaniq joylariga sharhlar haqida so'z", "Mantiqqa kirish", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning kelib chiqishi haqida", "Ihso al-ulum" ("Ilmlar tasnifi va ta'rifi haqida kitob") kabi asarlarida bayon etadi.

Forobiy o'zining "Baxt saodatga erishuv" ("Risolat at-tahsil as-saodat") nomli risolasida barcha ilmlarni nazariy va amaliy bilimlar guruhiga bo'ladi.

Mutafakkirning "Ihso al-ulum" asari Sharqda ham, G'arbda ham ko'p marotaba o'rganilgan, sharhlangan bo'lib, xatto uning fors tiliga qilingan tarjimasi ham chop etilgan<sup>16</sup>.

Bu asarda Forobiy tasnifining eng to'liq va mukammal ishlangan shakli berilgan. U quyidagicha:

## I. Til haqida ilm

1. Yakka va sodda so'zlar haqidagi ilm.
2. Murakkab va qo'shma so'zlar

<sup>15</sup> Матвиевская Г.П. К истории математики Средней Азии IX-XV вв. -Т.: 1962. –С.36.

<sup>16</sup> Баходиров Р.М. Илmlар фазилати. -Т.: "Қатортол- Камолот", 1997. –Б.10.



(u bilan bog‘liq notiqlik san‘ati va stilistika) haqidagi ilm. 3. Talaffuz qoidalari haqidagi ilm. 4. Tilning qonun va qoidalari (grammatika) haqidagi ilm. 5. To‘g‘ri yozish qoidalari. 6. To‘g‘ri o‘qish qoidalari. 7. She‘r yozish ilmi – poetika. U uch qismdan iborat: vazn, qofiya va she‘riyat qoidalari.

Abu Nasr Forobiy o‘z tasnifida nafaqat har bir ilm ob‘ekti xususiyatlarini, balki uning o‘ziga xos qonun va qoidalarini hamda unga xos bilish vositalarini hisobga oladi.

U o‘z tasnifida din tarafdorlari fikridan farqli o‘laroq, inson a‘zolari va tabiatga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganishni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Abu Nasr Forobiy fikricha, har bir inson tabiiyot ilmlarini o‘rganishdan oldin undan avval kelgan riyoziyot ilmlari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Forobiyning ilmlar tasnifi ob‘ektiv haqiqat asoslaridan kelib chiqqanligi sababli moddiylikka asoslangandir. Chunki har bir ilm, olim fikricha, moddiy jismlarning u yoki bu taraflarini, ma‘lum guruhi yoki ma‘lum tomonlarini o‘rganadi. Ilmlar va bilim umuman borliq mahsuli sifatida sub‘ektiv xohishdan vujudga kelmay, balki sekin-asta va muttasil ravishda insonlarning ularga bo‘lgan ehtiyoji paydo bo‘lishi natijasida vujudga keladi. Abu Nasr Forobiy sistemasida turli ilmlar bir-birlarini inkor etmaydi va aksincha ular o‘zaro bog‘liqlik hamda taqozo asosida ko‘rib chiqiladi.

Abu Nasr Forobiy insonning bilish qobiliyatlarini o‘rganuvchi fanlarni – til haqidagi fanni, mantiqni alohida guruhga ajratadi va ularni “pedagogik ilmlar” deb ataydi. Bu bilan ularning mavjud tabiiy jismlar xususiyatlarini o‘rganuvchi fanlardan farqini ta‘kidlaydi. Bunday guruhlashtirish voqelikka muvofiq keladi hamda olimning kuzatishlari nozikligidan, chuqur bilimlarga ega bo‘lganligidan, uning o‘rganayotgan predmetga ilmiy yondoshganligidan dalolat beradi.

Forobiyning ilmlar tasnifi Sharqda qanchalik katta rol o‘ynagan bo‘lsa, Yevropada ham shunday rol o‘ynadi va o‘zidan keying mutafakkirlarga qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi<sup>17</sup>.

Forobiydan keyin ilmlar tasnifi masalasini boshqa ko‘p olimlar ham o‘rgandilar. Ular qatoriga “Ihvon as-safo” (“Soflik birodarlari”)<sup>18</sup>ni kiritish mumkin. Ular musulmon Yaqin

<sup>17</sup> Баходиров Р.М. Илмлар фазилати. -Т.: “Қатортол- Камолот”, 1997. –Б.13.

<sup>18</sup>“Ihvon as-Safo” haqidagi to‘liqroq ma‘lumotlarni qarang: Махмедов Ш.Ф. Развитие философского мысли в Азербайжане. -М.: 1965.



Sharqida, keyinchalik esa musulmon G‘arbida ilk o‘rta asrda falsafiy fikr tarqalishida katta rol o‘ynadilar. Ular o‘z davri ilmlarini aks ettiruvchi 52 risoladan (ba’zi manbalarda 51) iborat majmua yaratdilar. Ushbu majmua “Rasail Ihvon as-safo” (“Soflik birodarlari risolalari”) degan nom bilan chop etilgan.

Mazkur risola falsafiy ilmlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda idrok va mantiqiy tafakkurga asoslangan ilmlar nazarda tutilarkan hamda metafizika va ilohiyot qatorida unga riyoziyot va tabiyot kiritilgan edi. Majmuada riyoziyot va mantiqqa o‘n to‘rt, tabiyotga o‘n yetti, metafizika va psixologiyaga o‘n, ilohiyot va din masalalariga o‘n bir risola bag‘ishlangan edi.

Majmuaning “Ilmiy san’atlar haqida”gi risolasida berilgan tasnifida ilmlar uch ko‘rinishga bo‘linadi. Birinchi ko‘rinish ilmlari hayotni tartibga solish va hayotiy ishlar to‘g‘riligi haqida bo‘lib, ularning ta’kidlashicha, bu propedevtikadir<sup>19</sup>. Ikkinchi ko‘rinishi shariat deb ataluvchi va nafsning u dunyodagi holati bilan bog‘liq narsalarni o‘rganuvchi ilmlar tashkil etadi. Uchinchi ko‘rinish – falsafa.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiyning boy ilmiy me’rosi nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham katta qiziqish bilan o‘rganiladi. Uning ijtimoiy-axloqiy, falsafiy-gnoseologik, qarashlari o‘zidan keyingi musulmon faylasuflari uchun asosiy yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada Farobiyning axloqiy-falsafiy g‘oyalari, komil inson g‘oyasi va baxtga erishish yo‘llari haqida so‘z boradi.

**Xulosa** qilib shuni aytishimiz mumkinki, avvaldan mavjud bo‘lgan va O‘rta Osiyoning G‘arbidan Sharqigacha kesib o‘tgan hamda qator shaharlarni ham o‘z ichiga olgan mashhur Ipak yo‘li mavqeining yanada kuchayishi ham madaniy rivojlanishda muhim rol o‘ynadi. Movarounnahr va Xurosonning qadimiy boy madaniyati uning arab xalifaligida, butun musulmon Sharqidagi rolini, madaniy ravnaqida yetakchi o‘rin tutishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Boy madaniy merosdan foydalanishning ob’ektiv ijtimoiy sharoitlari vujudga kelishi bilan ma’naviy ravnaqni tezdan yuzaga keltirishda muhim omil, manba bo‘lib xizmat qildi.

<sup>19</sup>Propedevtika – dastlabki bilimlar majmui



Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilib, Forobiyning tasniflarida masalani oldinga qo'yishda aniqlik va oydinlik, dunyoviy bilim va tabiiy fanlarni ajratib olish va alohida ta'kidlash yaqqol ko'zga tashlanishini aytish mumkin. Qadimgi Sharq olimlari asos solgan, antik va ellinizm davridagi namoyondalar qo'shimcha qilgan fanlarning rivojlanishi o'rta asr musulmon Sharqida muvaffaqiyatli davom etdi. O'sha davrning munosib arboblari, Sharq davlatlari, shu jumladan Markaziy Osiyodan ham kelib chiqqan jahon ilmining ustunlari, ya'ni eng yetuk vakillari va namoyondalari nafaqat, o'zidan oldingi tajribani o'zlashtirgan bo'lib, balki ilmiy fikr rivojlanishi tarixi, xususan, ilmlar tasnifiga o'zlarining salmoqli hissasini qo'shishga muvaffaq bo'ldilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahodirov R.M. Ilmlar fazilati. –Toshkent: “Qatortol- Kamolot”, 1997. –B.14.
2. “Ixvon as-Safo” haqidagi to'liqroq ma'lumotlarni qarang:
3. Махмедов Ш.Ф. Развитие философского мысли в Азербайжане. –Москва: 1965.
4. Матвиевская Г.П. К истории математки Средней Азии IX-XV вв. – Ташкент: 1962. –С.36.
5. Safarova, T. R. YUSUF KHOS HAJIB IS AN ENCYCLOPEDIC SCHOLAR.
6. Rustamkulovna, S. T. (2024). AMALIYOTGA ETIKA TAMOYILLARI VA ME'YORLARINI JORIY ETISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(3), 37-40.
7. Сафарова, Т. Р. (2023). ТУРИЗМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ. ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(11), 124-128.